



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA BO'LAJAK AGRAR SOHA MUTAXASSISLARINING MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Buranova Dildufaxon Anvarovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotehnologiyalar instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligini raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak agrar soha mutaxassislarni tayyorlashda "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fanining imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda talabalarda ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuv, uning tarkibiy komponentlari, o'qitish metodlari va baholash mezonlari asoslab berilgan. Taklif etilgan metodika raqamli qishloq xo'jaligi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar:

raqamli qishloq xo'jaligi, AKT, ma'lumotlarni boshqarish, kompetensiyaviy yondashuv, bulutli texnologiyalar.

Аннотация.

В статье рассматриваются возможности дисциплины "Информационно-коммуникационные технологии в сельском хозяйстве" в условиях цифровизации аграрной отрасли. Обоснована методика, направленная на формирование у студентов компетенции управления данными, ее структурные компоненты, методы обучения и критерии оценки. Предложенная методика способствует подготовке конкурентоспособных специалистов для цифрового сельского хозяйства.

Ключевые слова:

цифровое сельское хозяйство, ИКТ, управление данными, компетентностный подход, облачные технологии.

Abstract.

This article examines the role of the course "Information and Communication Technologies in Agriculture" in training future agricultural specialists under the conditions of digitalization of agriculture. The study substantiates a methodology aimed at developing students' data management competence, its structural components, teaching methods, and assessment criteria. The proposed methodology contributes to training competitive specialists for digital agriculture.

Keywords:

digital agriculture, ICT, data management, competency-based approach, cloud technologies.

Kirish. Dunyo miqyosida qishloq xo'jaligi sohasini raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Aholi sonining oshishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqlim o'zgarishlari sharoitida samaradorlikni oshirish qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiya (AKT)larni joriy etishni taqozo etmoqda.

Bugungi kun fan-texnika va ishlab chiqarishning rivojlanishi, ta'limda nazariya bilan amaliyot birligi, hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi talablari, talabaning mustaqil faol va ongli mehnatiga asoslangan, uning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan, tafakkurini rivojlantiradigan, vaqtdan unumli foydalana oladigan, bilim o'rganishini yengillashtiradigan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga tadbiq etishni taqozo etadi. Muhtaram Yurtboshimiz aytganlaridek: "Xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rishni istaydi. Bizning mehnatkash, oq ko'ngil, bag'ri keng xalqimiz bunga to'la xaqlidir" [10].

Agrosanoat kompleksi O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim sohalaridan biridir. Agrar islohotning hozirgi bosqichi inqirozdan chiqish zaruriyati tufayli kadrlar siyosatiga alohida talablar qo'yilmoqda. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligi sohasida oliy ma'lumotli darajaga

ega bo'lgan professional mutaxassis qanday bo'lishi kerak degan savol dolzarbdir. Bugungi kunda ish beruvchilar qo'l ostidagi xodimlariga qo'yiladigan talablarni belgilashda, o'z tanlovlarida talabaga o'qitilgan fanlar ro'yxatiga emas, balki uning qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini bilan birgalikda ega bo'lgan kompetensiyalariga asoslanadilar [11].

O'zbekiston Respublikasida ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, sohaga aqlli texnologiyalarni joriy etish va malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jarayonda "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fani talabalarda raqamli savodxonlikni shakllantirish, ma'lumotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) - bu axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va foydalanuvchilarga yetkazish jarayonlarini ta'minlovchi texnik, dasturiy va tashkiliy vositalar majmuasidir [4].

AKT tarkibiga quyidagilar kiradi:

- kompyuter texnikasi va mobil qurilmalar;
- dasturiy ta'minot (ofis dasturlari, tahlil va boshqaruv tizimlari);
- internet va bulut texnologiyalari;
- ma'lumotlar bazalari va axborot tizimlari;
- sensorlar, dronlar va IoT (Internet of Things) qurilmalari.

Qishloq xo'jaligida AKT ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli boshqarish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va xo'jalik faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimini raqamlashtirish global miqyosda ustuvor yo'nalishga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida barcha sohalarida, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda o'quv jarayonini zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanmasdan tashkil etish mumkin emas. Ta'lim va tarbiyaning eng dolzarb vazifasi XXI asrdagi insonning aqliy qobiliyatlari va insoniy fazilatlarini shakllantirish orqali aniqlanadigan talabalarining kompetentligini oshirishdan iborat: mas'uliyat, boshqalarning fikr-mulohazalariga nisbatan bag'rikenglik, muloqot qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati, fikrlashni rivojlantirish, turli xil shakllarda va turli xil usullar bilan ma'lumotlarni topish, tahlil qilish, boshqarish, integratsiya qilish, baholash va yaratish qobiliyati, jamoada ishlash qobiliyati, muammolarni yechimini topish va hal qilish qobiliyati shular jumlasidandir [12].

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi tufayli agrar sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarga qo'yiladigan talablar ham tubdan ortib bormoqda. An'anaviy sogaga oid bilimlar bilan bir qatorda, zamonaviy mutaxassislarga katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va boshqarish bo'yicha yetarli kompetensiyalarga ega bo'lishlari zarurligi ta'kidlanmoqda. Ayniqsa, "Raqamli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasi sharoitida ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda [13].

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish jarayonida geoinformatsion tizimlar, masofadan zondlash, sensorlar, dronlar, bulut texnologiyalari va Big Data platformalaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyalar samarali ishlashi uchun esa ularni boshqaradigan, ma'lumotlar bilan ishlay oladigan malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasi – bu talabaning ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saqlash, tizimlashtirish, tahlil qilish, himoyalash va ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanish qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi integrativ kasbiy sifatdir. Ushbu kompetensiya raqamli qishloq xo'jaligi sharoitida agrar mutaxassisning muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini quyidagi komponentlar asosida ifodalash mumkin:

- bilim komponenti – AKT, ma'lumotlar bazalari, bulutli xizmatlar, axborot xavfsizligi bo'yicha nazariy bilimlar;
- amaliy ko'nikma komponenti – elektron hujjatlar bilan ishlash, ma'lumotlarni jadval va grafiklar ko'rinishida tahlil qilish, bulut platformalaridan foydalanish;
- analitik komponent – ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish, prognoz qilish va qaror qabul qilish;
- motivatsion-qiymat komponenti – ma'lumotlar bilan ishlashga ijobiy munosabat va mas'uliyat;
- refleksiv komponent – o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish.

“Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalari” fani agrar yo'nalishdagi talabalarga zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, mazkur fan orqali talabalarda ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantiradi.

Fan mazmuniga quyidagi asosiy yo'nalishlar kiradi:

- qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan AKT vositalari;
- elektron hujjat aylanishi va ma'lumotlar bazalari;
- bulut texnologiyalari (Google Drive, Google Sheets va boshqalar);
- geoinformatsion tizimlar va raqamli xaritalar;
- axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoyalash asoslari.

Mazkur fan doirasida nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirilgan holda berilishi talabalarining kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Talabalarda ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi metodik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi:

- kompetensiyaviy yondashuv;
- faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim;
- muammoli va keys-stadi asosidagi o'qitish;
- raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.

O'quv jarayonida keys topshiriqlari, loyiha ishlari, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim vazifalaridan foydalanish talabalarining real kasbiy vaziyatlarda ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida qishloq xo'jaligi sohasida raqamli transformatsiya jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Aholi sonining o'sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)ni joriy etishni taqozo etmoqda.

Raqamli qishloq xo'jaligining asosi - ma'lumotlardir. Qishloq xo'jaligida quyidagi ma'lumotlar shakllanadi:

- agroteknik ma'lumotlar (tuproq, namlik, pH);
- hosildorlik ma'lumotlari;
- ob-havo va iqlim ma'lumotlari;

- moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlar;
- texnika va sensor (IoT) ma'lumotlari.

Keltirilgan ma'lumotlarni tartibsiz yig'ish samarasiz bo'lib, ularni tizimli boshqarish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Ma'lumotlarni boshqarish kompetentligi bu talabaning ma'lumotlarni to'plash, ularni tasniflash va saqlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish, ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy qishloq xo'jaligi raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va ma'lumotlarni boshqarishga asoslangan samarali rivojlanish jarayonida.

T.B.Lemeshko bugungi kunda agrar ta'limning asosiy tendensiyalari – bu oliy va qo'shimcha kasbiy ta'lim tizimida hayoti davomida yangi kompetensiyalarni uzluksiz shakllantirish, shuningdek kelajak kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [5], [6].

Yu.M.Tsarapkina qishloq xo'jaligi ta'limi rahbarlari va o'qituvchilari o'z ishlarida raqamli ta'lim vositalaridan tobora faolroq foydalanishga moslashishlari kerak, chunki ulardan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifati va samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashini aytadidi [7].

R.Ts.Tsidipovning ta'kidlashicha global tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish jarayonida asosiy resurslardan biri - ma'lumotlar (data) hisoblanadi. Shu sababli agrar sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalarini, balki ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish kompetensiyalariga ham ega bo'lishi lozim [8].

Yuqoridagi tahlillardan oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalari" fani talabalarda ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Muhokama. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish sharoitida "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda ta'lim beruvchilar oldida yangi-yangi talablar ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- agrojarayonlarni raqamli monitoring qilish;
- IoT sensorlar, dronlar va GIS texnologiyalaridan foydalanish;
- Big Data asosida prognozlash va rejalashtirish;
- bulut texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni boshqarish.

Bu jarayonlar agrar mutaxassislardan ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha yuqori darajadagi kompetensiyalarni talab etadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalari" fanini an'anaviy texnik bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, uni kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim modeli asosida o'qitish zarur.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi raqamlashtirish, avtomatlashtirish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tamoyillariga tayangan holda rivojlanmoqda. Bu jarayonda agrar soha mutaxassislardan nafaqat kasbiy bilim, balki ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va ularga asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalari talab etilmoqda.

Ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasining mohiyati raqamlashtirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasi - bu talabaning:

- ma'lumotlarni yig'ish va tasniflash;

- ularni raqamli muhitda saqlash;
- tahlil qilish va vizualizatsiya qilish;
- tahlil natijalariga asoslanib qaror qabul qilish;
- ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash bo'yicha integrative bilim, ko'nikma va malakalari majmuidir.

Qishloq xo'jaligida bu kompetensiya tuproq, hosildorlik, ob-havo, iqtisodiy va texnik ma'lumotlar bilan ishlash jarayonida namoyon bo'ladi.

"Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida talabalarda ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi didaktik imkoniyatlar orqali amalga oshiriladi:

1. Nazariy tayyorgarlik:

- raqamli qishloq xo'jaligi tushunchasi;
- ma'lumotlar turlari va manbalari;
- axborot tizimlari va platformalar.

2. Amaliy faoliyat:

- Google Sheets'da agrar ma'lumotlar bilan ishlash;
- Google Drive orqali bulutli ma'lumotlar boshqaruvi;
- GIS va Google Earth yordamida agrozaritalash;
- sensor va monitoring ma'lumotlarini tahlil qilish.

3. Tahliliy va refleksiv faoliyat:

- real keyslar asosida muammoli vaziyatlarni hal qilish;
- ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish;
- o'z faoliyatini baholash va xulosalar chiqarish.

AKT fanini o'qitishda Bloom taksonomiyasi asosida quyidagi jadvalda ko'rsatilgan bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni ta'minlanadi:

<u>Bosqich</u>	<u>Talaba faoliyati</u>	<u>Natija</u>
<u>Bilish</u>	<u>AKT va ma'lumot tushunchalarini o'zlashtiradi</u>	<u>Axborot savodxonligi</u>
<u>Tushunish</u>	<u>Ma'lumotlarning agrar sohadagi ahamiyatini izohlaydi</u>	<u>Raqamli savodxonlik</u>
<u>Qo'llash</u>	<u>Bulutli platformalarda ma'lumot bilan ishlaydi</u>	<u>Amaliy ko'nikma</u>
<u>Tahlil</u>	<u>Ma'lumotlarni solishtiradi va baholaydi</u>	<u>Tahliliy kompetensiya</u>
<u>Baholash</u>	<u>Qarorlar samaradorligini aniqlaydi</u>	<u>Professional kompetensiya</u>

Ushbu ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim;
- keys-stadi va loyiha metodi;
- raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish;
- fanlararo integratsiya (AKT + agronomiya + iqtisod).

Xulosa. "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalari" fanini kompetensiyaga yo'naltirilgan holda o'qitish qishloq xo'jaligini raqamlashtirish sharoitida talabalarda ma'lumotlarni boshqarish kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkonini

beradi. Ushbu kompetensiya esa kelajak agrar mutaxassisining raqobatbardoshligi, innovatsion fikrlashi va kasbiy faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi.

Hozirgi zamon jamiyati qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilaridan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimlarni talab qilmoqda. Sivilizatsiyalashgan, yuqori darajada rivojlangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini shakllantirish va rivojlantirish muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kasbiy mahoratiga, shaxsiy va ijtimoiy yetukligiga bog'liq. Shu jumladan tarmoqning rivojlanish darajasi bilan birga qishloq xo'jaligi mutaxassislarga qo'yiladigan talablar darajasi ham ortib bormoqda, bu esa mutaxassislarning tayyorlash strategiyasini jiddiy o'zgartirmoqda. Bu, ayniqsa, inqiroz hodisalarini keskin boshdan kechirayotgan qishloq xo'jaligi sohasida dolzarb va talabga ega [14].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi – Qishloq xo'jaligi transformatsiyasi 2030 - - matn:elektron.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr.
4. Noraliyev N.X. Kusharov Z.K. Qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Iqtisodiyot-moliya. – T.: 2017. – 521 b.
5. Лемешко Т.Б. Дополнительное профессиональное образование в цифровой подготовке кадров АПК // Чаяновские чтения. Материалы I Международной научно-практической конференции по проблемам развития аграрной экономики. М.: Научный консультант, 2020. С. 270-275.
6. Лемешко Т.Б. Направления развития дополнительного профессионального аграрного образования в условиях цифровой трансформации // Бизнес и дизайн ревю. 2021. № 3(23). С. 15.
7. Царапкина Ю.М. Информационные технологии в профессиональном самоопределении молодежи: Монография / Ю.М. Царапкина / Иркутск: ООО "Мегапринт", 2017. - 208 с.
8. Цыдыпов Р.Ц. "Компетентностный подход в профессиональной подготовке будущих специалистов сельского хозяйства", Вестник Бурятского государственного университета., 2013 год, №15., -С.183-185.
9. Зеер Э.Ф., Заводчиков Д. Идентификация универсальных компетенций выпускников работодателем // Высшее образование в России/ -2007. -№2.
10. D.Buranova., R.Djurakulov. "Methodology and competence: interconnectedness (Metodika va kompetensiya: o'zaro uzviylik)", O'zMU xabarlar Vestnik HUU3 ACTA NUUZ. 2024, [1/9] ISSN 2181-7324. <http://journals.nuu.uz> Social sciences.
11. Buranova.D. "Qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy-kommunikativ tayyorlash". "Экономика и социум" №3(118). 2024. ISSN: 2225-1545; 2541-9285. www.iupr.ru. 101-105 betlar.
12. Buranova.D. "Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarning kompetensiyaviy samaradorligini oshirish masalalari to'g'risida", "Mu'allimlar ham o'qituvchilar bilimlari", ISSN 2181-7138.4-san, iul, Nukis-2024. Qaraqalpaqstan. 132-135 betlar.
13. Buranova.D. "Qishloq xo'jaligi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim muammolari", Science and education in agriculture, iyul 2024. volume 7, issue 7. ISSN: 3030-3222, OAK. <http://www.seagc.andqai.uz>. 41-44 betlar.
14. Zakirova.F.M.,Buranova.D. "Qishloq xo'jaligi talabalarining kasbiy Kompetentligini rivojlantirish", "Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi". Respublika ko'p tarmoqli, ilmiy konferensiya. Mart. 2025. 19-22 betlar.

MUNDARIJA

Negmatova Arofatxon Muxtarovna

METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVLAR	3	8
---	---	---

Buranova Dilluzaxon Anvarovna

QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA BO'LAJAK AGRAR SOHA MUTAXASSISLARINING MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	9	14
---	---	----

Баранова Татьяна Анатольевна

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ УНИВЕРСИТЕТА	15	19
---	----	----

Davlatov U.X., Parmanova P.T., Eshqo'ziyev D.D.

GLOBALASHUV SHAROITIDA OLIY TIBBIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL TAMOIILLARI	20	24
--	----	----

Mo'minova Nilufar Abduvaxobovna

ABDURAHMON SA'DIYNING "ALISHER NAVOIY QARASHLARI" TO'G'RISIDA	25	31
---	----	----

Djalilova Dilnozaxon Obidjanovna

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING GERMENEVTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNING METODIK TA'MINOTI	32	37
--	----	----

Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi

FIZIKA FANINI O'QITISHDA ADAPTIV O'QUV TIZIMLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	38	40
--	----	----

Zulunova Mokhlaroym Abdurashid qizi, Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi

OLIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISHDA BLENDED LEARNING VA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI	41	46
---	----	----

Душабаева Гуласал Муталибовна

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ	47	50
--	----	----

Баранова Татьяна Анатольевна

МЕТОД CASE-STUDY КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	51	56
---	----	----

Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi

TALABALARNING YETAKCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	57	62
--	----	----

B.K.Mamadaliyev

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI "KREATIV TEACHER" RAQAMLI TA'LIM MUHITI ORQALI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYADAN AMALIYOTGA	63	68
---	----	----

